

## INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA “QO‘RQUV VA FEAR” LEKSEMALARNING LEKSIK - SEMANTIK TAHLILI

**D.M.Solijonova**

*Qo‘qon universiteti turizim va iqtisodiyot fakulteti jahon tillar kafedrasida lingvistika  
yo‘nalishi 2-bosqich magistranti*

**Email:** [diyorasolijonova34@gmail.com](mailto:diyorasolijonova34@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ingliz tilidagi fear hamda o‘zbek tilidagi qo‘rquv leksemalarining leksik-semantik xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda qo‘rquv konseptining til birliklarida ifodalanishi, uning semantik maydoni, sinonimik qatori hamda madaniy xususiyatlari o‘rganildi. Tahlil natijasida har ikki til tizimida qo‘rquv konsepti umumiy semantik yadroga ega ekanligi, biroq ifoda vositalari va semantik darajalari jihatidan ayrim farqlar mavjudligi aniqlandi.

**Kalit so‘zlar:** qo‘rquv konsepti, fear, leksik-semantik maydon, konseptual tahlil, qiyosiy tilshunoslik.

**Abstract.** This article provides a comparative analysis of the lexical-semantic properties of the lexemes fear in English and fear in Uzbek. The study examined the expression of the concept of fear in linguistic units, its semantic field, synonymic range, and cultural characteristics. As a result of the analysis, it was found that the concept of fear in both language systems has a common semantic core, but there are some differences in terms of means of expression and semantic levels.

**Keywords:** concept of fear, fear, lexical-semantic field, conceptual analysis, comparative linguistics.

**Аннотация.** В данной статье представлен сравнительный анализ лексико-семантических свойств лексем страх в английском языке и страх в узбекском языке. Исследование рассматривало выражение понятия страх в языковых единицах, его семантическое поле, синонимический диапазон и культурные особенности. В результате анализа было установлено, что понятие страх в обеих языковых системах имеет общее семантическое ядро, но существуют некоторые различия в средствах выражения и семантических уровнях.

**Ключевые слова:** понятие страх, страх, лексико-семантическое поле, концептуальный анализ, сравнительная лингвистика.

### **Kirish**

Bugungi kunda zamonaviy tilshunoslikda inson omili masalasi taboro dolzarblik kasb etmoqda. Lisoniy birliklarni xalq ma'daniyati, uning tarixi, etnografiyasiga aloqadorligi xususida qator tadqiqotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bu esa o'z o'rnida tilning ijtimoiy tabiati, kommunikativ funksiyasi naqadar muhim ekanligidan dalolat beradi. Jumladan, insonning ruhiy holati uning nutqida ham bevosita va bilvosita namoyon bo'ladi. Til inson tafakkuri, dunyoqarashi va hissiy kechinmalarini aks ettiruvchi muhim vositadir. Inson psixologiyasida asosiy emotsional holatlardan biri qo'rquv bo'lib, u turli tillarda turli leksik birliklar orqali ifodalanadi. Qo'rquv insonning xavf, tahdid yoki noma'lum vaziyatga nisbatan paydo bo'ladigan tabiiy emotsional reaksiyasidir. Tilshunoslikda emotsional konseptlarni o'rganish kognitiv lingvistika va konseptual tahlil yo'nalishlarida muhim o'rin tutadi. Qo'rquv konsepti ham inson ongida shakllangan muhim mental kategoriyalardan biri hisoblanadi. Ingliz tilida ushbu konsept asosan fear leksemi orqali ifodalanadi. O'zbek tilida esa bu tushuncha qo'rquv leksemi bilan ifodalanadi. Har ikki til tizimida ushbu leksema atrofida keng leksik-semantik maydon shakllangan. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi: ingliz tilidagi fear leksemasining leksik-semantik xususiyatlarini aniqlash; o'zbek tilidagi qo'rquv leksemasining semantik maydonini o'rganish; har ikki til birliklarini qiyosiy tahlil qilish. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, u qiyosiy tilshunoslik, konseptologiya va semantika sohalarida qo'rquv konseptining lingvistik xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar tahlili**

Ba'zi tilshunoslar qo'rquvning bir necha turlarini ajratib ko'rsatishadi, jumladan, tilshunos A. Vejbitskaya “qo'rquv” ni “g'azab”, “qayg'u” va “qoniqish” bilan birga insonning to'rtta asosiy hissiyotlaridan biri deb hisoblaydi.[1.B.67] Shunday qilib, qo'rquv hissi tufayli yuzaga kelgan munosabatlarning madaniy tarkibiy qismi e'tibordan chetda qolishi mumkin emas. Qo'rquv har qanday jamiyat madaniyatining muhim tarkibiy qismidir. Shu sababli, bu murakkab hodisani oddiy insonlarning ongida qanday konseptuallashtirilganligini kuzatish qiziqarli ko'rinadi. Qo'rquv fundamental his-tuyg'ular ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, ushbu konsept (P.Ekman, V.Friesen, K. Izard, A. Wierzbicka, A. N. Leontiev, S. Rubinshtein va



boshqalar), his tuyg‘ularning universallik, tanib olish, imkoniyat kabi asosiy xususiyatlariga ega.

### Muhokama va natijalar

Qo‘rquv insonning asosiy tuyg‘ularidan biridir. Ibtidoiy odamning tabiat hodisalaridan Qo‘quv bu hissiy tushuncha bo‘lib u psixologiya sotsiologiya va tilshunoslik bilan o‘zaro chambarchas bog‘liq. Qo‘rquv insonning asosiy tuyg‘ularidan biridir. Ibtidoiy odamning tabiat hodisalaridan qo‘rqishi, urushdan qo‘rqishi, o‘z hayotidan, yaqinlari va aziz odamlarini yo‘qotishidan qo‘rqishi, noma‘lum kelajak qo‘rquvi – bularning barchasi bu hissiyotning universalligi va hukmronligini tasdiqlovchi misollar bo‘lishi mumkin. Qo‘rquv o‘zini himoya qilish instinkti asosida yuzaga keladigan ruhiy holat va xavfga nisbatan reaksiya sifatida qaraladi. Qo‘rquv, tashvish, vahima, fobiyalar, dahshatli epizodlarni idrok etish, o‘zining va boshqalarning hayotining dahshatli rasmlarini taqdim etish bilan bog‘liq bo‘lgan his-tuyg‘ular tegishli tushunchaning asosiy qatlamini tashkil qiladi.[2.B.5] Tushunchaning lingvistik ma‘nodan kengroq ekanligini ta’kidlab, ko‘pchilik olimlar tushunchaning shakllanishi uchun asos hissiy obraz, so‘z ma‘nosi esa semantik komponentlar yig‘indisi yoki oilasi ekanligini o‘rganishgan. Semantik tahlilda semalar yig‘indisi tushuncha mazmunini bir butun sifatida ifodalay olmaydi, boshqacha aytganda, fikr yig‘indisi hech qachon lingvistik shaklda keng qamrovli ifoda topmaydi. Tushuncha konsepsiya sohasining birligi (tushunchalardan tashkil topgan psixik soha), ma‘no esa tilning semantik makonining birligi (belgilar yordamida amalga oshirilgan tushuncha sohasining bir qismi) sifatida qaraladi. Ma‘no o‘z semalari bilan tushunchani tashkil etuvchi ma‘lum xususiyatlarni bildiradi, lekin uning semantik mazmunining faqat bir qismini ifodalaydi. Qiyosiy tadqiqotlarda zamonaviy tilshunoslikda til birliklari o‘rtasidagi tushunchalar keng yoritilib kelinmoqda. Qo‘rquv leksemasini quydagi jadval asosida keng ko‘lamda ko‘rib chiqamiz.

№	So‘zlar	Izohlar	Misollar	Izohli lug‘at havolasi
1	Qo‘rqmoq	1.Qo‘rquv his etmoq, qo‘rquv hissiga berilmoq. 2.Qo‘rqoqlik, yuraksizlik	Teshaboyning jahli chiqdi: -Teshganda ko‘zingizni teshmaydi-ku!	<a href="#">Qo‘rqmoq</a>

		qilmoq, yuragi betlamay, dov bermay qochmoq. 3. Hadik olmoq, botina olmaslik, yuragi dov bermaslik.	Muncha qo‘rqmasangiz M. Ismoiliy, Farg‘ona t.o.	
2	Hayiqmoq	1. Biror ish-harakat qilishga cho‘chimoq; qo‘rqmoq, botina olmaslik. 2. Biror xatti-harakat, muomala va sh.k. da kimdandir, nimadandir cho‘chimoq, u bilan hisoblashmoq.	Miyasida tug‘ilgan turli fikrlarga chuqurroq ma‘no berishdan hayiqdi. J. Abdullaxonov, Xonadon	<a href="#">Hayiqmoq</a>
3	Cho‘chimoq	1. Bexos tashqi yoki ichki ta'sirdan sakrab, sapchib tushmoq, seskanmoq. Cho‘chib uyg‘onmoq. 2. Ko‘chma Qo‘rqmoq, hadiksiramoq; shubhalanmoq.	Oriqqina bir bola mashina tovushidan cho‘chib, yo‘l chetiga chiqdi. S. Nurov, Maysalarni ayoq urmaydi	<a href="#">Cho‘chimoq</a>
4	Seskanmoq	1. Tashqi ta'sirdan cho‘chib yoki biror narsadan jirkanib sapchib tushmoq. Seskanib ketmoq.	To‘ybeka.. sovuq suv keltirib, Kumushning manglay va ko‘ksiga sepgan edi, seskanib o‘ziga keldi. A. Qodiriy, O‘tgan kunlar.	<a href="#">Seskanmoq</a>
5	Xavflanmoq	Biror narsadan xavfga tushmoq, qo‘rqmoq, xavotirlanmoq.	Yurtda katta qo‘zg‘olon, otish-tutish bo‘lganini eshitgan Unsin akasidan xavflanib,	<a href="#">Xavflanmoq</a>



			kechga yaqin.. Taxtapulga kelgan edi. Oybek, Tanlangan asarlar.	
6	Dahshat	Nihoyat darajadagi qo‘rqinch, xavf, vahima. Tun dahshati. Urush dahshati.	Otabek masalaga tushungandek bo‘ldi va dahshat ichida Ali bilan yo‘lga tushdi. A. Qodiriy, O‘tgan kunlar	<a href="#">Dahshat</a>
7	Sarosima	O‘zini yo‘qotmoq; garang bo‘lmoq; sarosimaga tushmoq.	Tabibulla, hozir chindanam Vahobov aytgan dengiz tubiga tushib ketayotgandek sarosimalanib, motorni o‘chirdi. S.Karomatov, So‘nggi barxan.	<a href="#">Sarosima</a>
8	Mudhish	Kishini dahshatga soladigan, dahshatli, qo‘rqinchli. Mudhish xabar. Mudhish jinoyat. Mudhish manzara.	-Bu qanday falokat, qanday mudhish falokat, – dedi Ibn Sino yig‘lamoqdan beri bo‘lib. M. Osim, Ibn Sino qissasi.	<a href="#">Mudhish</a>
10	Vahima	Vahimaga tushmoq, tahlika tortmoq, qo‘rqmoq.	Vali aka vahimalanib: A!! – deb yubordi. M. Ismoiliy, Farg‘ona t.o.	<a href="#">Vahima</a>

Ma’lumki, “leksik birliklar lisonida turli semantik munosabat asosida xar xil paradigma xosil qilgan xolda mavjud buladi” [3.B.73]. Bunda leksemalar shakily jixatdan leksik omonimlar va paronimlarda yuzaga chiqsa, mazmuniy jixatdan



leksik sinonimiya va antonimiya, graduonimiya kabi semantik paradigmalarda voqealanadi. Qo‘rquv leksemasi bilan bir qatorda sinonimlik qiladigan so‘zlarning ro‘yxatini yuqoridagi jadvalda ko‘rib chiqdik bu so‘zlar bir biridan shakl munosabatiga ko‘ra farq qilsada ma‘no jihatdan o‘xshashdir. Tilshunoslikka oid ayrim adabiyotlarda, jumladan, professor H. Jamolxonovning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida sinonimiyaning asosan ikki turi ajratiladi, ya‘ni ularning birinchisi - leksik sinonimiya, ikkinchisi - kontekstual sinonimiya.

1. Leksik sinonimiya. “Shaklan xar xil, ammo bir tushunchani turli bo‘yoq va ottenkalar bilan ifodalaydigan leksemalar sinonim deyiladi. Sinonim leksema orasidagi munosabat sinonimiya yoki sinonimik munosabat deb yuritiladi. Sinonim leksema ma‘nolaridagi atash va vazifa ma‘nosi aynan bir xil bulib, ifodasi ma‘nosi farqlanadi”. [3.B.74] Demak, sinonim leksemalar shakily jixatdan bir-biridan farqlanib, ma‘no nuqtai nazaridan bir umumiylik ostida birlashadi. Lekin shuni xam aloxida ta‘kidlash kerakki leksemalarni birlashtirgan sinonimik qatorga mansub leksemalar o‘ziga xos ma‘nolariga ko‘ra farqlanishi mumkin. Buning sababi shuki, qo‘rmoq leksemasi dominant so‘z bo‘lib qolgan so‘zlar bilan manodoshlikni hosil qiladi va bu leksema so‘zlashuv muloqotida keng qo‘llaniladi. Qo‘rquv so‘zi aniq shuningdek mavhum tushunchalariga nisbatan ishlatiladi. Hayiqmoq, seskanmoq, cho‘chimoq leksemalarida belgi darajasi qolgan so‘zlarga qaraganda kuchsizroq. Biror ish harakatni qilishga botina olmaslik yoki insonlar tomonidan cho‘chib seskanib ketishlikni bildiradi. Bu so‘zlar tashqi tasirlar orqali hosil bo‘ladi. Misol uchun shaxs yoki biror narsa orqali insonlarning tashqi ta’sirlarga bo‘lgan munosabatini bildiradi. Bunday holatlar bexosdan yoki qasdan sodir etilishi ham mumkin. Shuningdek Xavflanmoq so‘zining semantik tarkibida biror narsadan xavfsirash, xadixsirash yengil qo‘rquv ma‘nolari mavjud. Dahshat so‘zida belgi darajasi vahima, sarosima so‘zlaridagiga nisbatan kuchliroq bo‘lib nihoyat darajadagi qo‘rqinch, xavf, vahima holatlarini bildiradi. Misol uchun: *tun dahshati, urush dahshati, o‘lim dahshati*. Sarosima, Vahima so‘zlarida ham belgi darajasi yuqoridir. Mudhish kitobiy so‘z bo‘lib ko‘proq badiiy adabiyotlarda qo‘llaniladi. [4.B.102]

2. Kontesktual sinonimiya. Sinonimiyaning ikkinchi turi bulgan kontekstual sinonimiyaga H. Jamolxonovning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida shunday ta’rif beriladi: “Kontekstual sinonimiya - til birligi sifatida o‘zaro sinonim bo‘lmagan leksemalarning ma‘lum kontekst doirasida (demak, nutq ichida) sinonimik munosabatga kiritilishi”. [3.B.76] Qo‘rquv leksemasida kontekstual sinonimiya, nisbatan, oz mikdorni tashkil etadi. Lekin shuni ta‘kidlash kerakki, polisemantik leksemalar xam xar bir ma‘nosi bilan boshqa-boshqa sinonimik qatorlarga kirishi mumkin. Misol uchun dahshat va mudhish so‘zlarini oladigan



bo‘lsak bu so‘zlar malum bir cheklangan kontestlardagina qo‘rquv leksemasi bilan sinonimlik qila oladi. Qo‘rquv leksemasini ingliz tilidagi ekvalitenti ya’ni sinonimlari bo‘lgan qatorni quydagi jadvalda ko‘rishimiz mumkin.

No	Words	Definitions	O‘zbek tilida izohi	Links
1	Fear	A strong, unpleasant emotion or feeling caused by actual or perceived danger or threat.	qo‘rquv, cho‘chish, tahlika, vahima, xavfsirash, hadik, qo‘rqinch	<a href="#">Fear</a>
2	Apprehension	Anticipation, especially of unfavorable things such as dread or fear or the prospect of something unpleasant in the future.	qo‘rquv, hadik, cho‘chish, hayajonlanish	<a href="#">Apprehension</a>
3	Flinch	To make a sudden, involuntary movement in response to a (usually negative) stimulus; to cringe; to blench.	seskanib ketmoq, cho‘chib tushmoq, sapchib tushmoq	<a href="#">Flinch</a>
4	Terror	The action or quality of causing dread; terribleness, especially such qualities in narrative fiction.	vahima, dahshat, qo‘rqinch,	<a href="#">Terror</a>
5	Scare	A cause of slight terror; something that inspires fear or dread.	qo‘rqitib yubormoq, dahshatga tushmoq/tushirmoq, sarosimaga tushmoq/tushirmoq	<a href="#">Scare</a>
6	Dread	Great fear in view of impending evil; fearful apprehension of danger; anticipatory terror.	vahimaga tushmoq, dahshatga tushmoq	<a href="#">Dread</a>



7	Panic	Overwhelming fear or fright, often affecting groups of people or animals.	sarosima, vahima, vasvasa, dahshat, vahma	<a href="#">Panic</a>
8	Fatal	Causing death or destruction.	halokatli, o‘limga olib boradigan / keladigan, halok qiladigan, o‘limli	<a href="#">Fatal</a>
9	Phobia	An irrational, abnormal, or obsessive fear (of something).	vahimaga tushish, vasvasa, qo‘rquv	<a href="#">Phobia</a>

*Fear* so‘zi qo‘rquv so‘zining ekvaluenti bo‘lib, bu so‘z dominantlik qatorida asosiy neytral so‘zdir. *Fear* so‘zi emotsional holatni umumiy tarzda bildiradi va barcha boshqa birliklar *fear* kanseptining semantik kengaytmasi bo‘lib hizmat qiladi. Biz *fear* so‘zini rasmiy va norasmiy uslublarda ishlatishimiz mumkin. *Apprehension* so‘zi rasmiyroq so‘z bo‘lib yozma nutqda ko‘proq qo‘llaniladi. Bu so‘z yengil qo‘quv hayiqish, xavotir aralash qo‘rquvni bildiradi. *Flinch* so‘zi norasmiy nutqda ko‘proq uchraydi, yengil qo‘rquvni biror kimsadan yoki narsadan cho‘chishni bildiradi. *Terror* so‘zi kuchli emotsional holatiga ega bo‘lib bu so‘z adabiy va rasmiy nutqda ko‘p qo‘llaniladi. *Scare* xavflanmoq so‘ziga ekvaluent bo‘lib u oddiy kundalik muloqotda ko‘p uchraydi. *Dread* so‘zi adabiy va rasmiy ohangga ega so‘zdir. Bu so‘z *terror* so‘zi bilan birgalikda kuchli havotir qo‘rquvni, daxshatni bildiradi. *Panic* neytral so‘z bo‘lib ham rasmiy ham norasmiy nutqda uchratishimiz mumkin. *Panikaga tushdi* yani *sarosima bosdi* yokida *vahimaga tushdi* manolarida o‘zbek tiliga tarjima qilishimiz mumkin. *Fatal* juda rasmiy nutq bo‘lib biz uni deyarli yozma nutqda ishlatamiz va bu mudhish so‘ziga teng kela oladi. *Phobia* ilmiy psixologik terminlar qatorida ko‘p duch keladigan so‘zlarimizdan biridir. Ko‘proq rasmiy nutqda uchratishimiz mumkin. Bu so‘zlarni intensivlik darajasiga ko‘ra guruhlab chiqadigan bo‘lsak eng *quyi darajaga* biz *apprehension*, *flinch*, *panic* so‘zlarini olamiz va bu so‘zlarda qo‘rquv inson ongiga tanasiga, va holatiga ko‘ra yengil tasir qilishini ko‘rishimiz mumkin. Qo‘rquvni ifodalovchi *o‘rta darajalarga* *fear*, *scare*, *phobia* so‘zlarini misol qilishimiz mumkin. Chunki bu so‘zlar neytral bo‘lib ko‘proq umumiy qo‘rquv holatini ifodalaydi. Qo‘rquvning darajalanib borishdagi *eng yuqori* holatlarini ifodalovchi so‘zlarimiz *terror* *dread* *fatal*



so‘zlaridir. Bu darajalanish o‘zbek tilidagi qo‘rquv bilan bir qatorda turadigan sinonim so‘zlar bilan ham deyarli bir xildir. Ingliz va o‘zbek tillarida madaniyatlar tillar boshqa boshqa bo‘lganligiga qaramay inson qo‘rquvni qanday qabul qilishi uning ongi bilan bog‘liqligini ko‘rishimiz mumkin. Ingliz tilida bu so‘zlarning konseptual strukturasi tahlil qiladigan bo‘lsak, ularning *kognitiv komponentiga* apprehension hamda dread so‘zlarini olishimiz mumkin. *Emotsional holatiga* ko‘ra fear terror scare so‘zlarini misol qilib olamiz. *Fiziologik* yani harakat reaksiyasiga flinch, panic so‘zlari kiradi. Bu so‘zlarni eshitgan yoki ishlatgan insonlar tashqi tasirga tana holati bilan reaksiya yani javob qaytarishadi. Inson nutq orqali fiziologik holatni ham bir paytda sodir etishi mumkin. Misol uchun *flinch - cho‘chimoq* so‘zi biror narsadan seskanib ketishlikni yengil qo‘rquvni ifodalaydi bunda bir vaqtning o‘zida ham nutq ham tana harakatga keladi. Nutqdan chiqayotgan so‘zlarning inson ongiga tasiri orqali bizning tanamiz javob reaksiyani beradi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak *fear konsepti* intensivlik, kognitivlik, emotsionallik, hamda fiziologik darajalariga ega. Bu konsept ko‘p qatlamli semantik maydonni hosil qilib, o‘z ichiga holat, (fear), jarayon (panic), reaksiya, (flinch) subkonseptlarni qamrab oladi.

#### **Xulosa**

Mazkur maqolada qo‘rqmoq leksemi ikki tilda ko‘rib chiqilgan bo‘lib, bu so‘zning leksik semantik birliklari tahlil qilindi. Leksemi tahlil qilish jarayonida o‘zbek tilining izohli lug‘atidan foydalanilgan bo‘lib, nafaqat so‘zning o‘zi baliki uning ma‘nosi va eketron havolasi ham taqdim qilingan. Qo‘rquv so‘zining sinonimlik qatorida turuvchi bir necha so‘zlarning ma‘nolari va ularning xususiyatlari H.Jamolxonovning Hozirgi o‘zbek adabiy tili asariga tayangan holatda ta‘rif berildi. Bir necha so‘zlarning qachon qay holatda ishlatilishi qanday ma‘noni anglatilishi yoritib berildi. Qo‘rquv so‘zining inglizcha varianti bo‘lgan fear so‘zining ham sinonimlik qatori ko‘rib chiqilib bu so‘zlarning definitioni yani ma‘nolari va elektron havolasi yoritildi. Bu so‘zlarning ba‘zilari bir xil manoda sinonimlik qatorni yarata olishlari ko‘rib chiqildi. Bunday natijalarni o‘rganishda ingliz tili lug‘atiga tayangan holatda olib borildi.

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Vejbitiskaya. A. Semantics: Primes and Universals – N Y.1996 B67
2. Solivonova. D.Yuldasheva. D. Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasida qo‘rquv kanseptining kognitiv talqini.B.5



3. Jamolxonov.H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin. 2005. B. 73, 74, 76
4. Rahmatullayev. Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. – Toshkent. Universitet. 2000. B102
5. G‘aniyeva Sh. XX asr o‘zbek hikoyasida emotsional holatlarning ifodalanishi. Filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi. - Toshkent. 2019
6. Talibov B. Kognitiv tilshunoslik: nazariya va amaliyot. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 2021.
7. Azimova D. (2024) American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education: Phraseological units denoting “Fear” in English and Uzbek linguistic picture of the world.
8. Jabborova G. (2024) American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education: Linguovognitive Classification of the Concept of “Fear” In Uzbek and English Artistic Discourse.

---

Research Science and  
Innovation House

